



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2017 yil 1 dekabr holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **6,0 foizga kamaydi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **9,1 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar **0,6 barobarga kam.**


2017 yil yanvar-noyabr oylari da viloyatimizda 2,4 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, lekin bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,2 foizga kamaygan.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlar ning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 58,0 foizga ortgan hamda ularning soni 4,1 mingtani tashkil

Buning natijasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 6,0 foiz (1,5 ming birlik) ga kamaygan hamda ularning umumiy soni 24,8 mingtani tashkil etgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Andijon shahrida (33,6 foiz), Asaka (9,1 foiz), Shahrixon (6,8 foiz) va Andijon (6,6 foiz) tumanlarida

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Korxonalar va tashkilotlar

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatizlarning ulushi, foizda




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,1 f.p), savdoda (-1,1 f.p), axborot va aloqada (-0,1 f.p.) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (-0,4 f.p.) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+0,6 f.p.), tashish va saqlashda (+0,2 f.p) boshqa turdagi xizmatlarda (+1,9 f.p) faoliyat turlarida oshishiga olib keldi.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,2 foizni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,8 foizni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,5 f.p. kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,2 foiz savdoda, 19,4 foiz sanoatda, 8,7 foiz qurilishda, 7,1 foiz qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,8 foiz yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,5 foiz tashish va saqlash, 2,1 foiz axborot va aloqa, 1,9 foiz sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,4 foiz boshqa faoliyat turlari


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) foizda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2017 yil 1 dekabr holatiga viloyatimizda jami 173 ta Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar mavjud bo'lib, ulardan 92 tasi qo'shma korxonalar, 81 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning ulushi, foizda



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar 74 ta (42,8 foizi), Andijon 16 ta (9,2 foiz) Shahrixon 12 ta (6,9 foiz) va Baliqchi tumanlari 9 ta (5,2 foiz) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Bo'z 1 ta (0,6 foiz), Ulug'nor 2 ta (1,2 foiz), Xonobod sh. 3 ta (1,7 foiz) va Paxtaobod t u m a n i 3 t a (1 , 7 f o i z) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

	Soni	Ulushi, %
Andijon viloyatida	173	100,0
Oltinko'l	8	4,6
Andijon	16	9,2
Baliqchi	9	5,2
Bo'z	1	0,6
Buloqbo'shi	6	3,5
Jalaquduq	5	2,9
Izboskan	6	3,5
Ulug'nor	2	1,2
Qo'rg'ontepa	7	4,0
Asaka	9	5,2
Marhamat	6	3,5
Shahrixon	12	6,9
Paxtaobod	3	1,7
Xo'jaobod	6	3,5
Andijon sh.	74	42,8
Xonobod sh.	3	1,7

Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2017 yil 1 dekabr holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 20,5 ming ortiqni tashkil qilgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi yani 7382 tasi (36,0 foizi) Andijon shahriga, 1918 tasi (9,3 foizi) Asaka, 1367 tasi (6,7 foizi) Andijon, 1359 tasi (6,6 foizi) Shaxrixon, 1164 tasi (5,7 foizi) Baliqchi, 1038 tasi (5,1 foizi) Qo'rg'ontepa, hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hududlar kesimidagi ulushi, foizda




Kichik korxona va mikrofirmalar soni

Faoliyat yuritayotgan 20,5 mingdan ortiq kichik tadbirkorlik sub'ektlarini toifalarga bo'lganda kichik korxonalar 5,5 foizni (1,1 mingtani), mikrofirmalar esa 94,5 foizni (19,3 mingtani) tashkil qilgan.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, foizda

Mikrofirmalar, %



Kichik korxonalar, %

